MILLIY-MADANIY KODLANGAN TIL BIRLIKLARINING DISKURSIV XUSUSIYATLARI

Ma’rifat Kasimova, Andijon
davlat chet tillari instituti Umumiy va qiyosiy tilshunoslik kafedrasi dotsenti
vazifasini bajaruvchi, filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya. Madaniyat kodlarining ishlash mexanizmi inson ongining atrof-muhitdagi reallikni anglash va uni ijtimoiy-etnografik qadriyatlar bilan baholash jarayoniga asoslanadi. Inson borliqni o‘z tanasi, atrofidagi buyumlar, tabiat hodisalari hamda mifologik qarashlar asosida konseptuallashtiradi. Buning natijasida tilda *antropomorfik, zoomorfik, predmetli, makon-vaqt* va *son* kabi madaniy kod turlari shakllanadi. Ushbu kodlarning har biri oddiy denotativ ma’noga madaniy konnotatsiya va pragmatik baho yuklab, badiiy va jonli diskursda lingvomadaniy vazifani faol amalga oshiradi.

Kalit so‘zlar: taraqqiyot, til va madaniyat, etnolingvistika, milliy-madaniy xususiyat.

Annotation: The mechanism of operation of cultural codes is based on the process by which human consciousness comprehends reality in the environment and evaluates it through socio-ethnographic values. Man conceptualizes existence on the basis of his body, surrounding objects, natural phenomena, and mythological views. As a result, cultural code types such as anthropomorphic, zoomorphic, object-based, space-time, and numerical codes are formed in the language. Each of these codes endows a simple denotative meaning with cultural connotation and pragmatic evaluation, actively fulfilling a linguocultural function in literary and living discourse.

Keywords: development, language and culture, ethnolinguistics, national-cultural characteristic.

Аннотация: Механизм действия культурных кодов основан на процессе осмысления человеческим сознанием окружающей действительности и её оценки через социально-этнографические ценности. Человек конструирует бытие на основе собственного тела, окружающих предметов, природных явлений и мифологических представлений. В результате в языке формируются такие типы культурных кодов, как антропоморфный, зооморфный, предметный, пространственно-временной и числовой. Каждый из этих кодов наделяет простое денотативное значение культурной коннотацией и прагматической оценкой, активно выполняя лингвокультурную функцию в художественном и живом дискурсе.

Ключевые слова: развитие, язык и культура, этнолингвистика, национально-культурная особенность.

Introduction. Zamonaviy antropotsentrik va kognitiv lingvistikada til va madaniyatning o‘zaro munosabati etnik guruhning mental-madaniy dunyoqarashini ifodalovchi tizim sifatida tadqiq etilmoqda. Ushbu munosabatning markaziy kategorial birligi hisoblangan madaniyat kodlar til egalari tafakkurida olamning lisoniy va konseptual manzarasini tartibga soluvchi, invariant xususiyatga ega ramziy belgilar, etnomadaniy stereotiplar va konseptual tuzilmalarni singdirgan murakkab semiotik-kognitiv dastur sifatida namoyon bo‘ladi. Madaniyat kodlarining ishlash mexanizmi inson ongining atrof-muhitdagi reallikni anglash va uni ijtimoiy-etnografik qadriyatlar bilan baholash jarayoniga asoslanadi. Inson borliqni o‘z tanasi, atrofidagi buyumlar, tabiat hodisalari hamda mifologik qarashlar asosida konseptuallashtiradi. Buning natijasida tilda *antropomorfik, zoomorfik, predmetli, makon-vaqt* va *son* kabi madaniy kod turlari shakllanadi. Ushbu kodlarning har biri oddiy denotativ ma’noga madaniy konnotatsiya va pragmatik baho yuklab, badiiy va jonli diskursda lingvomadaniy vazifani faol amalga oshiradi.

Tilshunos F.Usmonov o‘z tadqiqotida o‘xshatishlarda aks etuvchi lingvomadaniy kodlarni maishiy turmush realiyalari (115 ta), fauna (83 ta), flora (41 ta), tabiat hodisalari va unsurlari (61 ta), inson (61 ta), diniy, mifologik va folklor personajlari hamda boshqalar (62 ta) guruhlariga kiruvchi etalonlar misolida aniqlaydi. Olimning ta’kidlashicha, statistik tahlillar turg‘un o‘xshatishlarda qo‘llanuvchi eng ko‘p etalon leksemalar maishiy turmush realiyalarini ifodalovchi predmetli kod bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatgan[1]. Bu ko‘rsatkichlar o‘zbek milliy tafakkuri va mentalitetining amaliy-maishiy tabiatini ochib berishga xizmat qiladi.

Predmetli (artefakt) kod lingvomadaniy kodlar tizimida fundamental va qadimiy kodlardan biri hisoblanadi. Tilshunos olima V.N.Teliya ta’rifiga ko‘ra, madaniyat kodlari insonni o‘rab turgan borliqning shunday qatlamlariki, ular o‘zining denotativ ma’nosidan tashqari, milliy madaniyat belgisi, ramz va etalon sifatida xizmat qila oladi. Insoniyat ilk bor, aynan, o‘zi yaratgan va kundalik hayotda foydalanadigan buyumlar orqali olamni ramziylashtira boshlagan. Shu bois, predmetli kod lingvomadaniy kodlar tizimida o‘ziga xos tabiatga ega. Kod asosida qo‘l bilan ushlab, ko‘z bilan ko‘rib bo‘ladigan ashyo (uy-ro‘zg‘or buyumlari, kiyim-kechak, mehnat qurollari, issiqlik/nur manbalari va b.) turadi. Predmet dastlab o‘zining oddiy amaliy vazifasini bajaradi (masalan, *chiroq* – uyni yoritish uchun, *pichoq* – biror narsani kesish uchun). Keyinchalik bu buyumlarga ijtimoiy, mifologik va madaniy ma’nolar yuklanadi va ular **kodga** aylanadi (chiroq: *Onam – uyimizning chirog‘i*, pichoq: *Bahromning pichog‘i moy ustida*).

Tildagi aksariyat barqaror iboralar va maqollar, aynan, predmetli kodlar asosida shakllanadi: masalan, *kosa tagida nimkosa*.

[1] Usmonov F. O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi: Filol. fanl. b-cha fals. d-ri (PhD) diss. – Toshkent, 2020. – B.18.

Kodlarni lingvomadaniy birlik sifatida tahlil qilishda ularning shakllanishida uch bosqichli jarayonni ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir:

1-bosqich: predmetning moddiy madaniyatdagi o‘rni: o‘zbek xonadonida *chiroq, beshik, gilam, pichoq*ning borligi.

2-bosqich: buyumning urf-odatlardagi ishtiroki: *chillada chiroq yoqib qo‘yish, kelin tushgan xonadonda olov yoqish, chaqaloq boshiga non qo‘yish*.

3-bosqich: predmet nomining til tizimiga ko‘chib, inson xarakterini, ijtimoiy holatini yoki ruhiy kechinmalarini ifodalovchi ramzga aylanishi: *chirog‘i o‘chmasin* – avlodi davomli bo‘lsin.

Garchi predmetli kod barcha madaniyatlarda mavjud bo‘lsa-da, har bir millatning turmush tarzidan kelib chiqib, aniq bir predmetlarga yuklangan madaniy semalar farqlanadi. Masalan, Yevropa madaniyatida chiroq yoki sham ko‘proq *intellekt, bilim, romantika* kodi bo‘lsa, o‘zbek lingvomadaniyatida u eng avvalo *hayot, oilaviy farovonlik, farzand, ijtimoiy to‘qlik* kodidir. Xuddi shuningdek, o‘zbek tilidagi *beshik, dasturxon* kabi predmetli kodlar xalqning mental olamini aks ettiruvchi yorqin lingvokulturemalar hisoblanadi.

Predmetli kod insonning ashyoviy dunyosi va uning tildagi konseptual dunyoqarashi o‘rtasidagi ko‘prikdir. Tilshunoslikda ushbu kodni o‘rganish, moddiy madaniyat elementlarining qanday qilib ma’naviy va mental qadriyatlar darajasiga ko‘tarilganini ochib berishga xizmat qiladi:

a) *uy-ro‘zg‘or va xo‘jalik buyumlari kodi* ro‘zg‘or anjomlarining ko‘chma, ramziy ma’nolarini qamrab oladi.

*– Eh, Shokirjon, **pichoq borib suyakka yetdi**, – dedi Sodiq aka. – Bizam katta-katta pul topmasak bo‘lmas ekan. Muruvvatingizni darig‘ tutmay bizni yetaklang, inim.* (N.Abbosxon, “Sho‘rqishloq”)

Olimga tegmasdan oldin Obidaning xulq-atvori sho‘rqishloqcha edi. Olimning ta’sirida dimog‘dorligini tashladi. Oradan bir-ikki yil o‘tgach, butunlay xo‘jaqishloqcha xulq-atvorga o‘tib oldi. Karima xola aytmoqchi, qiz sho‘rlik ***muloyim supurgiga aylandi.*** (N.Abbosxon, “Sho‘rqishloq”)

b) ***taom kodi*** milliy taomlar va mahsulotlarning madaniy-aksiologik qiymatini ko‘rsatadi. Masalan, *non* baraka, rishtalar mustahkamligi kodi sifatida *non sindirmoq, noni butun, tuz* esa ishonch va sadoqat/sadoqatsizlik ramzi sifatida *tuz-namak, tuzini ichib, tuzlug‘iga tupurmoq* birliklarida keladi.

Agar Xolida bu haqida ozgina eshitsa bormi, “Opa, ***yig‘ishtiring bu karam sho‘rvangizni****, dunyoga bir marotaba kelasiz, bunday dilingiz chopmagan insonlar bilan quda bo‘lib sizga zaril keptimi” deb urishib tashlashdan tap tortmaydi.* (*https://uz.tgstat.com*)*; Tabiatan yolg‘onchi kishilar tushkunlikka tushganlarida ruhan tetik paytiga qaraganda rost gapirisharkan. Ammo hammasi iziga tushib ketgach, yana* ***qulog‘ingizga lag‘mon ilishda*** *davom etisharkan*! (Telegram kanalidan)

d) kiyim-kechak va ularning qismlari nomlari kodi madaniyatning lisoniy manzarasini shakllantiruvchi va konseptual tizimni tartibga soluvchi qadimiy tizimlardan biri hisoblanadi. Ushbu kod turi moddiy madaniyat unsurlari, ya’ni milliy liboslar va ularning qismlari: yeng, yoqa, belbog‘, etak kabilar vositasida turli ijtimoiy, psixologik, axloqiy va madaniy ma’nolarni ramziylashtirish asosida madaniy konnotatsiyani shakllantiradi. Til tizimida kiyim insonning jamiyatdagi maqomi, jinsi, yoshi, milliy mansubligi va ichki holatini namoyish etuvchi o‘ziga xos ijtimoiy belgi vazifasini bajaradi va tilda metaforik ma’nolarni ham ifodalaydi.

Muayyan kiyim turlarining nomlari xalq mentalitetida ijtimoiy maqom va axloqiy mezonlarning bosh tashuvchisi hisoblanadi. To‘n kodi insonning ijtimoiy mavqei bilan birga uning ruhiy holatini ramziylashtiradi. Milliy an’anada kambag‘allik va qasos olish maqsadidagi pragmatik harakat mahsuli bo‘lgan “to‘nini teskari kiymoq”

iborasi vaqt o‘tishi bilan ramziylik kasb etib, tilda “qaysarlik, achchiqlanish, o‘z so‘zida turib olish” psixologik holatining kodiga aylangan. Ayollar libosi unsuri bo‘lgan ro‘mol esa iffat va hayodan tashqari, etnografik jihatdan tinchlik va murosa kodi vazifasini bajaradi. To‘nni almashtirish yoki kafan, kappa kabi libos nomlari esa bevosita o‘lim va oxirat tushunchalarini tilda kodlashga xizmat qiladi.

O‘zbek milliy olam manzarasida kiyim qismlari nomlari ham muayyan konseptual modellarni shakllantiruvchi o‘ziga xos vositadir. Xususan, *yoqa* nomi o‘zbek madaniyatida insonning oriyat, nomus chegarasi, ijtimoiy maqom belgisi sifatida kodlanadi. Bu kognitiv qarash tilda *yoqa ushlamoq, yoqasidan tutmoq, yoqasi oqarmoq, bir yoqadan bosh chiqarmoq* kabi frazeologik birliklarda namoyon bo‘ladi. Insonning harakatchanligi, faolligi yoki pinhona xatti-harakatlari esa yeng nomi bilan kodlanadi; bunga *yeng shimarmoq, yeng ichida ish ko‘rmoq*, *qo‘l sinsa yeng ichida* kabi metaforik ko‘chimlar misol bo‘la oladi. Etak nomi madaniy konnotatsiyalanganda munosabatlar tabiatini tartibga soladi: masalan, *etagidan tutmoq* ijobiy, *etagiga osilmoq* salbiy munosabatlarni anglatsa, *etak qoqmoq* iborasi aloqani butunlay uzish, umidsizlik mazmunini ifodalaydi.

ning insondek fikrlashi, so‘zlashi hamda his qilishi antropomorfik kodning mahsulidir.

Biomorfik kod insonning o‘zini o‘rab turgan butun jonli tabiat – hayvonot (fauna) va o‘simliklar (flora) dunyosi haqidagi tasavvurlari, kuzatishlari va milliy stereotiplari asosida shakllanadigan kodlar tizimidir. Bunda insonning o‘zi tabiat vositasida izohlanadi, uning xarakteri, qiyofasi, ijtimoiy holati jonli tabiat belgilariga qiyoslanadi.

a) *zoomorfik kod* yovvoyi hayvonlar, uy jonivorlari va hasharotlarning jismoniy xususiyatlari, tabiati, odatlari hamda stereotiplashgan belgilarining tilda inson xarakteri, tashqi ko‘rinishi, xatti-harakatlari va ijtimoiy holatiga ko‘chirilishi yuzaga keladi. Biomorfik kodning tarkibiy qismi bo‘lgan bu tizimda inson atrofdagi olamni

hayvonot olami vositasida izohlaydi, bu esa xalqning asrlar davomidagi kuzatishlari va milliy tafakkuri mahsulidir. O‘zbek milliy olam manzarasida zoomorfik kod insonning ijobiy va salbiy fazilatlarini, ijtimoiy munosabatlarini baholovchi konseptual modellar vositasida namoyon bo‘ladi. Xususan, yirtqich va bahaybat hayvonlar nomlari milliy mentalitetda kuch, mardlik, hokimiyat va bag‘rikenglik ramzi sifatida kodlanadi. Masalan, *arslon* yoki *sher* nomi er yigitlarning jasorati va qo‘rqmasligini ifodalab, “arslon yurak”, “sherdek tashlandi” kabi birliklarda aks etsa, *ayiqpolvon* nomi jismoniy baquvvatlik bilan birga biroz lapashanglik xususiyatini ham anglatadi. Turkiy xalqlar mifologiyasida totem darajasiga ko‘tarilgan *bo‘ri* nomi esa erksevarlik, botirlik yoki vaziyatga qarab yirtqichlik, xavf-xatar kodi bo‘lib keladi.

Uy jonivorlari va ayrim qush va hasharotlarning nomlari insonning zaifligi, yuvoshligi, makkorligi yoki mehnatkashligi kabi xususiyatlarini modellashtiradi. Tildagi “ayyor tulki” metaforasi insondagi quvlik va makkorlikni, “qo‘zichoq” yoki “musicha” nomlari esa o‘ta yuvoshlik, beozorlik va kamsuqumlikni kodlaydi (“*musichadek beozor”*). Shuningdek, ot nomi o‘zbek etnografiyasida sadoqat, do‘stlik va ishonchli yo‘ldosh tushunchalari bilan bog‘liq holda faol lisoniy birliklarni tug‘diradi. Salbiy planda esa ba’zi hayvon nomlari insonning madaniyatsizligi yoki qaysarligini ifodalovchi kodga aylanadi, masalan, *eshak* – qaysarlik yoki farosatsizlik ramzi hisoblanadi. zoomorfik kod badiiy matnda, ayniqsa, xalq dostonlari, maqollar, frazeologizmlarda insonning ichki ruhiyatini, xarakter qirralarini va milliy stereotiplarni teran badiiy bo‘yoqlar bilan ochib beruvchi eng yetakchi kognitiv mexanizmlardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

*Kerilma **g‘oz**, hunaring oz* (xalq maqoli).

b) fitomorfik kod daraxtlar, gullar, mevalar, ekinlar va ularning qismlari: *ildiz, shox, barg, kurtak* haqidagi bilim va tasavvurlarning inson xarakteri, tashqi ko‘rinishi, ichki kechinmalari, hayotiy yo‘li hamda qarindoshlik aloqalariga ko‘chirilishi

natijasida yuzaga keladi. O‘simliklar olamining o‘sishi, gullashi, meva berishi, xazon bo‘lishi, ildiz otishi inson hayotining dinamik modeli sifatida xizmat qiladi.

O‘zbek madaniyatida oilaviy tizim va qarindoshlik rishtalari yaxlit bir daraxt shaklida tasavvur qilinadi. Shu mazmundagi “shajara” atamasi ham arab tilida daraxt ma’nosini bildiradi. Oilaning tarmoqlanishi, farzandlar va nabiralar daraxtning shoxlari va mevalariga o‘xshatiladi. Asqad Muxtorning “Chinor” romanining mazmun plani, aynan, shu konsepsiya asosiga qurilgan.

O‘simlikning qismlari ijtimoiy va genealogik mazmun kasb etadi. *Ildiz, palak* leksemalari insonning kelib chiqishi, nasabi va ajdodlarini anglatadi: *ildizi baquvvat, palagi toza*. O‘simliklarning ichki xususiyatlari va foydalilik darajasi inson xarakterini baholovchi mezon vazifasini bajaradi. Meva beruvchi daraxt kamtarlik va foydalilik ramzi hisoblanadi: *mevali daraxt yerga egiladi*.

Fitomorfik kod insonga o‘zining ichki olami, ijtimoiy munosabatlari va jismoniy tabiatini o‘simliklar olamining vegetativ rivojlanish xususiyatlari orqali anglash va lisoniy tizimga ko‘chirish imkonini beradi. Ushbu kod badiiy matnda, ayniqsa, mumtoz va zamonaviy she’riyatda, maqol va matallarda qahramonning ruhiy evolyutsiyasini, go‘zallik ideallarini va milliy olam manzarasining tabiat bilan uyg‘unligini ochib beradi.

*Xalqda shunday gap bor: “**Olmaning tagiga olma tushadi**”. Siz xalq suygan va e’zozlagan marhum san’atkor Fathulla Ma’sudovning zurriyotisiz. Ot izini toy bosadi. Kelajakda otangiz kabi to‘g‘riso‘z, iymonli, halol inson, shuningdek, mehnatkash, jonkuyar, sahna va ekranda yonib yashaydigan ijodkor bo‘lishingizni istaymiz.*(https://www.milliyteatr.uz)

Somatik kod inson yoki hayvon tanasi a’zolari, qismlarining nomlari (*bosh, ko‘z, qo‘l, yurak, jigar, til* va h.k.) vositasida atrof-muhitdagi jismoniy makon, o‘lchov-hajm, ijtimoiy maqom va psixologik munosabatlarni modellashtirish tizimidir. Inson

evolyutsiya jarayonida olam uzvlarini o‘lchash va baholashda, birinchi navbatda, o‘z tanasini etalon qilib olgan.

Nizom rangi o‘chib, uning oldiga bostirib bordi.

- Gapni aylantirma, «Dum»! Nima demoqchisan?

- Biron narsadan garov o‘ynashsin, ora ochiq bo‘ladi- qo‘yadi!

- Masalan?

- Masalan... – “Dum” mushkul muammo qarshisida qolgandek peshonasini tirishtirdi. - Masalan, Bo‘rijarga kalla tashlashdan. Kim omon chiqsa...

*- **Dumingni likillatma**, “Dum”! – Nizom nafrat bilan undan yuzini o‘girdi.*

- Ergash yaxshi suzolmasligini bilib, jo‘rttaga aytyapsan. (O‘.Hoshimov, “Oq bulut, oppoq bulut”)

*Tanqidchi esa bu o‘rinda ham **tirnoq ostidan kir qidirib**, adabiy til me’yorlariga rioya qilmaganimizni ro‘kach qilibdi.* (A.Rustamov, “Raddiya”)

Makon kodi insonning jismoniy, geografik va ijtimoiy makon, shuningdek, atrof-muhit haqidagi tasavvurlari va ularga ramziy ma’no yuklashi asosida shakllanadigan muhim madaniy kodlardan biridir. Lingvomadaniyatshunoslikda ushbu kod *uy, ostona, to‘r, yo‘l, tog‘, cho‘l* kabi mavjud makon detallarining tilda metaforalashishi, ramziy va falsafiy konnotatsiya kasb etishi orqali namoyon bo‘ladi. Makon kodi olam milliy manzarasini tartibga solishda ichki oppozitsiyalar va modellashtiruvchi yo‘nalishlar vositasida shakllanadi. Diniy va mifologik tasavvurlar bilan bog‘liq holda, «yuqori» ezgulik, ilohiylik va ulug‘vorlik bilan, «quyi» esa pastlik, xorlik, yovuzlik, o‘lim va tubanlik kabi salbiy ottenkalar bilan kodlanadi : *ko‘kka ko‘tarmoq – yerga urmoq, yer bilan bitta qilmoq. Yo‘l* tushunchasi makon kodining dinamik unsuri bo‘lib, u insonning hayot yo‘li, taqdiri, qidiruv va kamolot bosqichlarini ramziylashtiradi: *to‘g‘ri yo‘ldan adashmoq, katta yo‘lga chiqmoq.*

a) *real makon kodi* insonga o‘zini o‘rab turgan tabiiy muhit detallari vositasida abstrakt ichki dunyosini makon shaklida ifodalash imkonini beradi. O‘zbek etnografiyasida uyning har bir qismi alohida ramziy mazmun tashuvchi kod hisoblanadi: ostona ichki va tashqi dunyoni ajratib turuvchi chegara, uyning to‘ri eng yuqori qismi bo‘lib, u ijtimoiy maqom va hurmat belgisi hisoblanadi, metafora orqali mavhum makonni anglatadi: *qalbim to‘ridasiz*.

b) *tabiiy-landshaft makon kodi* *tog‘, cho‘l, dara, daryo, bog‘, voha, dengiz* kabi geografik va landshaft detallarining tilda ramziylashuvi, milliy dunyoqarash asosida falsafiy, ijtimoiy va psixologik konnotatsiya kasb etishi natijasida yuzaga keladi: *suyangan tog‘i, ishongan bog‘i, daryodil,*

d) *samoviy makon kodi* kosmik obyektlar va *osmon, quyosh, oy, yulduzlar, bulut, chaqmoq, koinot* detallarining tilda ramziylashuvi, falsafiy, diniy va psixologik konnotatsiya kasb etishi asosida yuzaga keladi. Yer real makonining ziddi o‘laroq samoviy makon kodi milliy tafakkurda mutlaq yuksaklik, ilohiylik, orzu-armonlar, taqdir va inson go‘zalligi konseptlarini modellashtiruvchi kuchli kognitiv metaforalar vazifasini bajaradi. Masalan, *yulduzlar* samoviy makonda inson taqdiri va ijtimoiy maqomini belgilovchi kod vazifasini bajaradi. Milliy ongda “har bir insonning o‘z yulduzi bor” degan qarash mavjud. Osmon makonidagi dinamik hodisalar insonning ruhiy portlashlarini ifodalaydi. Qattiq xafalik yoki g‘azab “qovog‘idan qor yog‘moq”, “yuzini bulut qoplamoq” tarzida kodlansa, tezkor va kutilmagan harakat yoki xavf *chaqmoqdek, chaqindek* modellarini yuzaga keltiradi. Samoviy makon kodi insonga o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan, cheksiz va ulug‘vor kosmik kenglik detallari vositasida o‘zining ichki olamini, orzularini va ilohiylikka bo‘lgan talpinishlarini fazoviy shaklda modellashtirish imkonini beradi. Til egalari osmon va astral obyektlarni o‘z ideallari tizimiga singdirib, ularga yuksak madaniy-estetik qiymat yuklaydilar. Ushbu kod badiiy matnda, ayniqsa, lirik she’riyatda muallifning falsafiy qarashlarini,

qahramonlarning ruhiy parvozlarini va milliy dunyo manzarasining vertikal chegarasini teran ramzlar orqali ochib beruvchi yetakchi kognitiv mexanizmlardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Mening shodligimsan, bolaligimsan,

Mening g‘ussam o‘zing, mening armonim.

Seni osmonimga olib ketaman,

Yerda bizga kun yo‘q, kun yo‘qdir, jonim!.. (M.Yusuf)

e) mifologik makon kodi borliqning sirli, g‘ayritabiiy qatlamlarini tartibga soluvchi mikrotizimdir. Bu kod xalqning qadimiy afsona va miflari, xalq ertak va dostonlari, shuningdek, diniy rivoyatlari asosida shakllangan xayoliy, muqaddas yoki xavfli makonlarning tilda ramziylashuvi natijasida yuzaga keladi. Real va samoviy makonlardan farqli o‘laroq, mifologik makon kodi insonning chegarasiz tafakkuri, qo‘rquv va umidlari, yaxshilik va yovuzlik o‘rtasidagi abadiy kurash konseptlarini modellashtiruvchi kognitiv mexanizmlardan biri hisoblanadi. Masalan, xalq tasavvurida Qof tog‘i dunyoni o‘rab turibdi deb ishonilgan, ortida jinlar va parilar yashaydigan, inson oyog‘i yetmaydigan sirli makon kodidir. Tilda va badiiy matnda u mutlaq uzoqlik, yetib bo‘lmas maqsad yoki mansabparastlik mazmunini anglatadi. Yer yuzida jannatga qiyoslab qurilgan, ammo vayron bo‘lgan afsonaviy “Bog‘i Eram” hamda diniy tasavvurlardagi jannat tushunchasi madaniyatda mukammallik, go‘zallik, tinchlik va farovonlik kodi bo‘lib keladi.

*Rais quruq rahmat bilan cheklanadigan nokas emas ekan. **“Bog‘i Eram”**ning o‘rtasidagi bahavo shiyponda «chortang» ziyofat berdi. To‘n yopdi. Ertasiga ham quruq qaytarmadi.* (Erkin A’zam, “Yozuvchi”)

Zamon kodi vaqt, uning oqimi, davrlar, fasllar, tun va kun almashinuvi hamda umr bosqichlari haqidagi tasavvurlar va ularga ramziy ma’no yuklash asosida shakllanadigan muhim madaniy kodlardan biridir. Madaniyatning zamon kodi davr

konseptualizatsiyasini ta’minlab, insonning vaqt o‘qidagi dinamikasini hamda uning moddiy-ma’naviy borliqdagi mavjudlik holatini lisoniy ifodalaydi. Mazkur kod insoniyatning vaqt bilan bog‘liq anglamlarini hamda “bir daqiqa”, “yildan-yilga”, “hijriy”, “milodiy”, “umrbod” kabi leksemalar vositasidagi ijtimoiy-madaniy tajribasini tizimlashtiradi. Xalq tafakkuridagi zamon kodi insonning dunyoviy va ruhiy olamdagi harakat yo‘nalishini, uning davr oqimidagi o‘rnini muhrlovchi muhim lingvomadaniy fenomendir. Mavhum tushuncha bo‘lgan vaqt birliklarining tilda metaforalashishi, milliy dunyoqarash asosida madaniy konnotatsiya kasb etishi natijasida yuzaga keladi. Vaqt tushunchasi inson taqdiri, hayotiy o‘zgarishlar, imkoniyat va yo‘qotish jarayonlarini metaforik ravishda aks ettiradi. Ayniqsa, yil fasllari va tun-kun almashinuvi inson umrining bosqichlarini va ichki kechinmalarini kodlovchi an’anaviy vosita hisoblanadi. Bahor – yoshlik, uyg‘onish, umid kodi bo‘lsa; kuz – keksalik, umr mahsuli yoki ruhiy tushkunlik kodidir. Shuningdek, kun qismlari ham inson faoliyati va kayfiyatini tartibga soladi: tong – yangi ibtido, poklik va umid kodi, tun esa sirlilik, qayg‘u, maxfiylik va ba’zan og‘ir iztiroblar kodi sifatida modellashtiriladi.

Islom madaniyatida *juma kuni, ramazon oyi*, kun davomida *bomdod va shom paytlari* o‘ziga xos chegara va duolar qabul bo‘ladigan sakral vaqt kodlari hisoblanadi. Islomiy tushunchalarga ko‘ra, shom vaqti kunduz va tun to‘qnashadigan xavfli payt sifatida kodlanib, shomda uxlamaslik, uy supurmaslik kabi taqiqlarni tug‘dirgan.

Til egalari vaqt birliklarini o‘z qadriyatlari prizmasidan o‘tkazib, ularga madaniy qiymat yuklaydilar. Ushbu kod badiiy matnda, ayniqsa, falsafiy lirikada va tarixiy nasrda asarning xronotop (makon va zamon birligi) tizimini qurish, qahramonlarning ruhiy o‘zgarishlarini va davr shiddatini ramziy tilda ochib berish uchun xizmat qiluvchi vositalardan biridir.

Ijtimoiy kod

a) ***harbiy kod*** ijtimoiy kodning nofaol tarkibiy qismi bo‘lib, harbiy sohaga oid atamalar, qurol-yarog‘, unvon, jang maydoni va taktik harakatlarni ifodalovchi lisoniy birliklarning tilda ko‘chma ma’nolar hosil qilish tizimidir. Bu kod orqali badiiy matnda inson taqdiri, ichki ruhiy kurash, jamiyatdagi ziddiyatlar yoki ijtimoiy munosabatlarning dinamikasi va dramatik tabiati lingvopoetik jihatdan ifodalab beriladi.

To‘xta: *Yig‘lamang. Ammo-lekin bilasizmi, oyimning unvonlari qanaqa?*

Nigora*: Bilaman, shaharda u kishini* ***General kampir*** *deb atashar ekan.*

To‘xta: *Yo‘q, shaharda shunaqa deyishadi. Ammo mahallada u kishini* ***Marshal kampir*** *deyishadi-ya.* (S.Ahmad, “Kelinlar qo‘zg‘oloni”)

b) ***ma’muriy kod*** jamiyatdagi davlat boshqaruvi, ijtimoiy tartib-qoidalar, lavozimlar, majburiyatlar va ma’muriy-huquqiy munosabatlarning tildagi madaniy-konnotativ aksidir. Ushbu kod insonning ijtimoiy iyerarxiya va qonun ustuvorligiga bo‘lgan munosabatini, hokimiyatga bo‘lgan mental qarashlarini lisoniy vositalar (metafora, frazeologizm, maqol) yordamida ifodalaydi. *Bola – poshsho (podshoh).*

*O‘zbek oilasi borki, har bir ish, tadbir, qadam, to‘y-ma’raka jarayonida ana shu savol yangraydi: “****Mahalla-ko‘y nima deydi?”****. Bu so‘roqning zamirida asosan, tarbiya va ma’naviyat mujassam. Masalan, bu gap katta yoshdagilar tomonidan qadam olishi sal o‘zgargan o‘spirin, ro‘zg‘oridagi janjal tufayli ota uyiga kelgan qiz, bosar-tusarini bilmay, «ko‘rmaganning ko‘rgani qursin» qabilida ish tutayotgan kishilarga qarata aytiladi. Va bu odamlarni ko‘plab noto‘g‘ri ishlardan tiyib turadi.* (“Yangi O‘zbekiston” gazetasi)

d) *ijtimoiy mansublik kodi* insonning jamiyatdagi o‘rni, kasb-kori, kelib chiqishi, iqtisodiy ahvoli va ijtimoiy rollarini aks ettiruvchi til birliklari tizimidir. Bu kod olamning sinfiy va jamoaviy modelini lisoniy vositalar bilan kodlashtiradi.

Ma’naviy kod:

a) aksiologik kod milliy ma'naviyat va tafakkur tizimidagi eng muhim qadriyatlarni (ezgulik va yovuzlik, halollik va poklik, or-nomus, vijdon, burch va mas'uliyat kabilarni) baholovchi madaniy-lisoniy belgilar majmuidir. Nutqda va badiiy matnda qahramonlarning ichki dunyosini, ularning axloqiy-estetik tanlovini va muallifning voqealarga bo'lgan munosabatini lingvopoetik jihatdan ifodalashga xizmat qiladi.

b) diniy-mifologik kod muayyan millatning diniy e'tiqodi, muqaddas tushunchalari va qadimiy mifologik tasavvurlari (masalan, *savob va gunoh, jannat va do'zax, farishta, shayton, dev, Qof tog'i, Xizr*) zamirida shakllangan ramziy lisoniy birliklar tizimidir. Nutqda va badiiy matnda voqea-hodisalarga kosmik yoki transsendent (mistik) teranlik bag'ishlash, badiiy obrazlarning metaforik olamini boyitish uchun qo'llaniladi.

O'zbek xalqining ijtimoiy va maishiy hayoti islom dini qadriyatlari hamda undan oldingi davrlarga xos bo'lgan animistik, mago-mistik tasavvurlar (so'zning sehrli kuchiga ishonish) bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Shu sababli, ushbu leksemalar oddiy diniy terminlik chegarasidan chiqib, umumxalq tafakkurida kuchli lingvomadaniy konnotatsiya kasb etgan.

*Barcha **farishtalar***
Sening qalbingda
Ijarada turgan
Qizlar men uchun!.. (M.Yusuf)

Shoikrom siltanib qaddini rostladi.

– Ovozini o'chir, Xadicha!

Ichkaridan xotinining beshikni mushtlagani, zardali tovushi eshitildi:

*– Ovozi o'chsa koshkiydi! **To'qqiz kechasida jin tekkan** bunga!* (O'.Hoshimov, "Urushning so'nggi qurboni")

Xalqimiz ishonchiga ko‘ra, chaqaloq tug‘ilgandan keyingi dastlabki davr eng xavfli va sinovli payt hisoblanadi. Bu davrda go‘dakning ham jismoniy, ham metafizik himoya tizimi juda zaif bo‘ladi. Mifologik tasavvurga ko‘ra bachadondan tashqaridagi hayotning ilk 9 kuni yoki “kichik chilla” chaqaloqning dunyoga moslashishidagi kritik nuqtadir. Agar shu davrda bola tinimsiz yig‘lasa, bu ritual himoyaning buzilgani bilan izohlangan. Diniy tasavvurda tabiatdagi g‘ayritabiiy kuchlar (jin, alvasti) himoyasiz qolgan chaqaloqqa zarar yetkazadi deb ishoniladi. Urush davrining og‘ir sharoiti, ochlik va yo‘qchilik girdobida qolgan ona chaqaloqning yig‘lashi sababini moddiy olamdan topolmagach, mifologik kodga murojaat qiladi va o‘z ruhiy zo‘riqishini shu qarg‘ish-alam orqali to‘kib soladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI

1. Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология: Курс лекций. – М.: ИТДГК “Гнозис”, 2002. (– 284 с.) – С. 233.
2. Тагильцева Ю.Р. Смысловые компоненты, выражающие культурные коды, в конфликтогенных поликодовых текстах // Политическая лингвистика. 2023. № 1 (97). – С. 77-88.
3. Маджидова Р.У. Репрезентация антропоморфного культурного кода в антропоцентрических пословицах // Xorijiy filologiya, №2, 2020. – B. 52-56.
4. Ефименко Т.Н. Взаимодействие лингвокультурных кодов в процессе межкультурной коммуникации // Известия вузов. Серия “Гуманитарные науки” 3 (3), – С. 188-191.
5. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология: ценностно-смысловое пространство языка: Учеб. пособие. – Москва: Флинта, Наука, 2010. – С. 123.

6. Киреева И.И. Структурно-семантические и прагматические характеристики английского лингвокультурного кода “Flora”: Автореф. ... канд. филол. наук. – Самара, 2008.
7. Маслова В.А. Духовный код с позиции лингвокультурологии: единица сакрального и светского //Метафизика. – М., 2016. № 4. – С. 78-97.
8. Mamatov E. Zamonaviy lingvistika. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2020. – B. 31.